



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

6 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 6, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST

VOLUME 6, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2023

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариши давлат университети

Махкамова Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Раҳмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алнева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Худайкулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далаат педагогика институти

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети


Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Зайнаб Абидова ХОРАЗМ ВОҲАСИ ЗИЁРАТГОҲЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ ШАКЛЛАНИШИ ВА МЕЪМОРИЙ ТУЗИЛИШИ.....	4
2. Гулзода Алимова АЛИШЕР НАВОЙИ АСАРЛАРИНИНГ ТАРИХНАВИСЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	11
3. Дилорам Бабажанова АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ – ЎРТА АСР БУЮК ДАҲОСИНИНГ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИ МАЪНАВИЙ ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ ЎРНИ.....	18
4. Iqbol Jabbarova QASHQADARYO VOHASIDA IRRIGATSIYA INSHOOTLARI QURILISHI, YERLARNING SUG‘ORILISHI TARIXI.....	26
5. Дилнавоз Рахматова “ПАХТА ИШИ” СИЁСАТИДА ҚЎШИБ ЁЗИШ ОПЕРАЦИЯСИ СЦЕНАРИЙСИ.....	33
6. Сохиба Сулайманова СУҒД ВОҲАСИДА ҒАРБИЙ ТУРК ХОҚОНЛИГИ БОШҚАРУВИДА ҚЎЛЛАНИЛГАН УСУЛЛАР.....	38
7. Икромжон Умаров СУРҲОН ВОҲАСИДА РУС КАПИТАЛИНИНГ ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ НАТИЖАЛАРИ.....	45
8. Акмал Менглибоев СУРҲОНДАРЁ ОКРУГИДА МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТИНИ ТЎХТАТИШ УЧУН АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ЧОРАЛАР.....	65
9. Firyuza Muxitdinova DUNYO OLIMLAR TANLILIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ILMIY MEROSINING O‘RGANGANLIK HOLATI VA AHAMIYATI.....	76
10. Нигина Султонова БУХОРО МИЛЛИЙ ЛИБОСИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ТАРИХИ.....	83
11. Одилжон Хамидов БАКТРИЯ САТРАПЛИГИНИНГ ЁЗМА МАНБАЛАРДА ЁРИТИЛИШИ.....	89
12. Nodira Hasanova SO‘NGGI O‘RTA ASRLARDA O‘RTA OSIYODA HUNARMANDCHILIK MARKAZLARINING TAKOMILLASHTIRILISHI.....	95




Firyuza Abdurashidovna Muxitdinova,
yuridik fanlar doktori ,

TDYU “Davlat va huquq nazariyasi ” kafedrası professorı

DUNYO OLIMLAR TAHLILIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ILMIY MEROSINING O’RGANGANLIK HOLATI VA AHAMIYATI

For citation: Firyuza A. Mukhitdinova. STUDYING THE LEGACY OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR BY SCIENTISTS: SCIENTIFIC STATUS AND SIGNIFICANCE. Look to the past. 2023, vol. 6, issue 8, pp.76-82

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8217940>

АННОТАЦИЯ

Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati, davlat boshqaruvi va harbiy mahorat tahlil qilinadi. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi har doim olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Muallif Bobur ijodining ilmiy va ma'naviy merosini, xususan, "Boburnoma", shuningdek, dunyo miqyosidagi boshqa asarlarni o'rganish holatini, Bobur ijodi bo'yicha tadqiqotlar, uning asarlari tarjimalarini tahlil etgan, shuningdek, "Boburnama" da juda ko'p ma'lumotlar mavjud bo'lib, hozirda ham, ular o'z tadqiqotchilarini kutayotgani, O'zbekiston olimlari, shuningdek, ilm-fan sohasida Yevropa sharqshunoslari uchun ham ahamiyatli ekani yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bobur, shoir, shoh, harbiy, vatanparvar, insonparvarlik, Boburnoma.

Фирюза Абдурашидовна Мухитдинова,
доктор юридических наук, профессор кафедры
"Теория государства и права" ТГЮУ

ИЗУЧЕНИЯ НАСЛЕДИЯ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА УЧЕНЫМИ: НАУЧНОЕ СОСТОЯНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются жизнь и деятельность Захриддина Мухаммада Бабура, государственное управление и военное мастерство. Так как жизнь и творчество Захириддина Мухаммада Бабура всегда были в центре внимания ученых Узбекистана а также зарубежных ученых.

Автор описывает научное и духовное наследие творчества Бабура, в частности, состояние изучения "Бабурномы" и других произведений ученых, творцов, а также мирового масштаба, исследования по творчеству Бабура, переводы его трудов, также в «Бабурнаме» очень много информации, которые и в современности не теряют свои значения наоборот, они стали еще более интересны в области науки ученым Узбекистана, также экспертам Европейских востоковедов.

Ключевые слова: Бабур, поэт, правитель, военный, патриотизм, гуманизм, Бабурнома.

Firyuza A. Mukhitdinova,
Doctor of Law, Professor of the Department
"Theory of State and Law" TSUL

STUDYING THE LEGACY OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR BY SCIENTISTS: SCIENTIFIC STATUS AND SIGNIFICANCE

ABSTRACT

The article analyzes the life and work of Zahiriddin Muhammad Babur, public administration and military skills. Since the life and work of Zahiriddin Muhammad Babur have always been in the center of attention of scientists of Uzbekistan as well as foreign scientists.

The author describes the scientific and spiritual heritage of Babur's work, in particular, the state of studying "Baburnoma" and other works of scientists, creators, as well as world-wide research on Babur's work, translations of his works, also in "Baburnama" there is a lot of information that does not lose its meaning in modern times, on the contrary, they have become even more scientists of Uzbekistan, as well as experts of European Orientalists, are more interested in the field of science.

Index Terms: Babur, poet, ruler, military, patriotism, humanism, Baburnoma.

1. Dolzarbligi:

Turkiston zamin xalqlari orasidan el-yurtning baxt-saodati deb, uning ozodligi va milliy mustaqilligi deb, jon fido qilgan To'maris va Shiroq, Spitamen va Muqanna, Mahmud Torobiy va Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi va Dukchi Eshon singari ko'plab milliy qahramonlar, Ismoil Somoniy, Mahmud G'aznaviy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va Abdullaxon singari yirik sarkarda va davlat arboblari yetishib chiqqan. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 — 1530) jahonga mashhur «Boburnoma» asari, dilbar g'azallarini jamlagan she'riy devoni, aruzga oid «Muxtasar»i va yana bir necha asarlari bilan shuhrat topgan ulug' shaxs. Albatta, uning harbiy yurishlari, g'alaba va mag'lubiyatlari haqida ham tarixchi olimlarimiz anchagina fikrlar bildirishgan. Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy-ma'naviy merosining dunyo olimlari tomonidan o'rganilishi va uning tarixiy ahamiyatining yoritilishi bugungi globallashuv sharoitida, turli ma'naviy tahdidlar kuchaygan bir tahlikali davrda yoshlarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda o'zining dolzarb mohiyati bilan muhim o'rin tutadi.

2. Metodlar:

Maqolani shakllantirishda tarixiylik, ilmiylik, xronologik ketma-ketlik, qiyosiylik, xolislik, tanqidiy yondashuv metodlaridan foydalanilgan holda dunyo olimlar tahlilida Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy merosining o'rganganlik holati va ahamiyati yoritib berilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

«Boburnoma»ni sinchiklab mutolaa etarkanmiz, bu temuriyodaning yoshligidan bobosi Amir Temur imperiyasini qayta tiklashda, keng miqyosdagi hududda yagona, mustahkam siyosatni yurgizishga intilishida, orzularini ma'lum darajada ro'yobga chiqarishda nimalarga asoslangani haqida o'yladik. Biz bu yechimni Boburning izchil shaxsiy jasorati, o'tkir tafakkuri, harbiy mahoratida ko'rdik. Vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga, yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan «Boburnoma» asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan mustahkam o'rin oldi. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lib, «Mubayyin» («Bayon etilgan»), «Xatgi Boburiy», «Harb ishi», Aruz haqidagi risolalari islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Tarixiy ma'lumotlarda aytilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo'lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo'llaganlar va Sikri jangidagi bu g'alaba Boburga Hindistonda o'z hukmronligini uzil-kesil o'rnatish va Boburiylar

sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Boburiylar sulolasi Hindistonda 300-yildan ortiq vaqt hukmronlik qildi.

Bobur bu g'alabadan keyin uzoq yashamadi — 1530-yil dekabr oyida, Agra shahrida vafot etdi va keyinroq uning vasiyatiga ko'ra farzandlari uning xokini Kobulga keltirib dafn etdilar. Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o'rganish va ommalashtirishda O'zbekiston, Tojikiston va Rossiya olimlarining faoliyatlari diqqatga sazovordir. XIX-XX asrlar davomida Georg Ker, N.Ilminskiy, O.Senkovskiy, M.Sale, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, V.Zohidov, Ya.G'ulomov, R.Nabiyev, S.Azimjonova, A.Qayumov kabi olimlarning harakatlari tufayli "Boburnoma" bir necha bor nashr qilindi. Ayni kunga qadar o'zbek yozuvchilaridan tashqari Bobur haqida asar yaratgan bir necha o'nlab chet ellik mualliflarning nomlari tanish. Jumladan, 1995-yili "Cho'lpon" nashriyotida ingliz tarixchisi U.Erskinning "Bobur Hindistonda" asari, hind tarixchisi L.P.Sharmaning 1988-yili Dehlida bosilgan "Boburiylar saltanati" asari, amerikalik olim S.M.Berkning "Akbarshoh – boburiylarlarning eng buyugi" (Berk Akbarshoh shaxsiyati va faoliyati misolida Hindistonga Bobur asos solgan, jahon tarixiga, "Buyuk mo'g'ul imperiyasi" nomi bilan kirgan saltanatning mustahkam tomir yozish jarayonini tasvirlaydi) asarlarida Boburga zamondosh tarixchilarning qo'lyozmalari, Hindiston tarixiga oid tadqiqotlar, XX asrning jahonga mashhur olim va tarjimonlarining asarlarida Boburning butun hayot yo'li, bolalik, o'spirinlik, yigitlik yillari, tashvishli kunlari, hukmronlik faoliyati, diniy-falsafiy qarashlari, davlatni boshqarish usuli, madaniyat va san'atga munosabati singari masalalar tasvirlangan.

Amerikalik tadqiqotchi Berk Boburga bergan qisqa va lo'nda tavsiflarida ulug' siymoning hayot yo'li, davlatchilik tarixidagi xizmatlari va shaxsiyatidagi eng muhim jihatlarni muxtasar tarzda yoritishga erishgan. Muallif Boburning hukmronlik siyosati xususida shunday yozadi: "Boburshohning fikricha, fothlik va hukmdorlik ishida yuz ming usul qo'llasa ham haq va zarur hisoblanadi. Biroq bosib olingan yerlarni, ayniqsa, bu o'lkalarni o'z saltanati tarkibiga kiritish rejalashtirilgan bo'lsa-da, u g'olib askarlar mag'lublar mulkini talon-taroj qilishiga mutlaqo yo'l qoymasdi". "Boburnoma" haqidagi fikrlar ham diqqatga sazovor: "Men bor haqiqatni yozdim", deydi muallif va haqiqatan ham u o'zining kamchiliklari, omadsizlikka olib kelgan noto'g'ri xatti-harakatlarini o'quvchidan yashirmaydi.

Bobur hayoti va ijodi Fransiyada ham keng o'rganilgan bo'lib, Fransiya ilm ahliga Zahiriddin Muhammad Bobur va "Boburnoma" haqida dastavval ma'lumot bergan fransuz sharqshunosi Bartoleme D'Erbelo (1621-1695) hisoblanadi. D'Erbelo o'zining "Sharq kutubxonasi" (La Biblioteque orientale. Paris, 1967) qomusidagi "Bobur yoki Bobar" nomli maqolasida Boburning hayoti, uning davlati va sarkardalik mahorati, adabiyot va san'atga qiziquvchi ilg'or fikrli kishi bo'lgani haqida ma'lumot beradi.

XIX asrga kelib Yevropa, xususan, fransuz sharqshunosligida Bobur merosini o'rganish, uning asarlarini tarjima qilish borasida yangi davr boshlandi. Ayni shu yillarda Boburning ulkan asari "Boburnoma"ni fransuz tiliga tarjima qilish, uning matn xususiyatlarini o'rganish, siyosiy-tarixiy ahamiyatini baholashda fransuz olimlari e'tiborga molik tadqiqotlarni yaratishdi.

Bobur ikki tilda -o'zbek va forsiy tillarida erkin ijod qilgan bo'lsa-da, faqat o'zbekcha she'rlarini to'plab 2 ta devon tuzgan. 1519-yilda Qobulda, 1529-yilda Hindistonda tuzilgan bu devonlar o'sha joylar nomi bilan yuritiladi. Qobul devoni topilmagan. Hind devonidagi she'rlarining umumiy miqdori 400 dan ortiq. 119 tasi g'azal, 231 tasi ruboiy, boshqalari turli janrdagi she'rlardir. Bobur she'rlarining ma'lum bir qismi hasbi hol xususiyatiga ega bo'lgan g'azaldir. Bobur g'azallari orasida hayotga qaynoq mehr aks etgan, jo'shqin g'azallar, afsus-nadomat ohanglari bilan to'lgan g'azallarni ham uchratish mumkin.

Boburning davlat ishlaridagi xizmati nimada? Avvalo, u Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, mamlakat yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini to'g'ri yo'lga qo'yish bog'rog'lar yaratish ishlariga shaxsan o'zi homiylik qildi. Hozirgacha mashhur bo'lgan me'moriy yodgorliklar, bog'lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning o'g'illari va avlodlari davrida kengaydi, deyish mumkin. Hindiston san'ati va me'morchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi sezila boshladi. Bobur va uning hukmdor avlodlari huzurida o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat

arboblarini mujassam etgan mukammal bir ma'naviy-ruhiy muhit vujudga kelgandi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida hind xalqining mashhur arbobi Javoharlar'l Neru shunday yozgan edi: "Bobur Hindistonga kelgandan keyin katga siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi".

Bobur Hindistonda katta hajmdagi adolatli davlat ishlari bilan bir qatorda, adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi. Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari "Boburnoma" hisoblanadi. "Boburnoma" da Bobur yashagan davrdagi Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar uch qismdan iborat bo'lib, 1-qismi- XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro'y bergan voqealarga, 2-qismi XV asrning oxiri, XVI asrning birinchi yarmida Qobulda ro'y bergan voqealarga, 3-qismi XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag'ishlangan. "Boburnoma" ning mavjud to'liq matni 1857-yilda turkolog N.Ilminskiy tomonidan Qozonda tipografiya yo'li bilan nashr qilingan. 1905-yilda ingliz olimasi A.Beverigi xonim "Boburnoma" ning Haydarobodagi qo'lyozma nusxasini chop ettirdi. Ana shu 2 ta nusxaga asoslanib 1948-49-yillarda asarning ikki qismdan iborat to'liq matni P.Shamsiyev, Sodiq Mirzayevlar tomonidan nashr qilindi. 1960-1989-yillarda yana qayta nashr etildi. "Boburnoma" dagi ma'lumotlar o'sha davrda yaratilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond, Xondamir, Muhammad Solih, Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Allomiy kabi tarixchilarning asarlarida bu darajada oshiq va mukammal yoritilmagan. Muallif "Boburnoma" da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Mirzo Ulug'bek va boshqa allomalar haqida o'zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi. Kamoliddin Binoiy, Behzod, Mirak naqqosh, Husayn Udiy singari adabiyot va san'at arboblari haqida qimmatli ma'lumotlar va mulohazalarni keltiradi. Shuningdek, hind olimi, Kashmir universiteti professori Muhobbul Hasan "Boburnoma" hususida fikr bildirarkan, bu asarning Boburshoh shaxsiyati va davlat tizimini o'rganishidagina emas, balki Hindiston tarixi, geografiyasi va madaniyati, o'tmishini o'rganishda ham qimmatbaho manba ekanini, Hindistonni, uning xalqi hayotini tasvirlashda muallif idrokining naqadar o'tkirligini ta'kidlab o'tadi. "Boburga qadar bironta musulmon tarixchisi yoki geografi (al-Beruniydan mustasno) Hindistonni bu qadar jonli va to'g'ri tasvirlagan emas", deydi muallif. Shuningdek, shoh Boburning o'z fuqarosi – hind xalqi bilan do'stona muomalada bo'lganini, hindlar ham shoh tuzumidan mamnun yashaganliklarini ko'p bora ta'riflab o'tadi.

"Boburnoma"ning doctor Bak'e-Grammon tarjimasini fransuz o'quvchisining didiga yaqin saviyada amalga oshiraladi. Unda Bobur hukmronligi davri Movarounnahr, Afg'aniston va Hindiston yerlarining xaritalari berilgan.

Bobur nima haqda va kim haqda yozmasin, g'oyat samimiydir. O'zining quvonchini ham, g'amini ham hech kimdan yashirmay, ro'y-rost aytadi. Do'sti haqida ham, dushmani haqida ham ko'nglidagini so'zlaydi. O'zMU magistranti Aziza Ahmadova mazkur tahlillarni o'rganib, o'z maqolasida hali Bobur ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishni naqadar kuchliligini e'tirof etgan.

Bobur butun umri jangu jadallarda kechishiga qaramasdan tabiatan nihoyatda ziyrak va sinchkov, g'oyat fahmli va idrokli, hamma narsaga qiziquvchan bir zot edi. U qaerga bormasin, o'sha yerning geografik tuzilishi, joylashishi o'rindan tortib, o'simlik va hayvonot dunyosigacha, qishu yozining ob-havosidan, elining tili-yu, urf-odatlarigacha hamma-hammasi bilan qiziqadi va yozib qoldiradi. Ma'lumki, unda Bobur yashagan davr oraliq'ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yaxshi yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi — XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro'y bergan voqealarni; ikkinchi qismi — XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya'ni Afg'onistonda ro'y bergan voqealarni; uchinchi qismi — XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag'ishlangan. "Boburnoma"da o'sha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinar ekan, o'z yurti Farg'ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O'sh, Urganch, O'ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda nodir ma'lumotlar keltirilgan. Unda Kobul ulusining yirik shaharlari Kobul, G'azna va ular ixtiyoridagi ko'pdan-ko'p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy

Hindiston haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin. "Boburnoma"ni varaqlarkanzimiz, ko'z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlariga xos bo'lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olamini kengligi va murakkabligi bilan birga, o'sha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to'liq manzarasi namoyon bo'ladi. Tahlilimizni 1495 — 96-yillar voqealari — Bobur 13 yoshda paytida Xuroson, xususan, Hisorda qanday holat hukmron bo'lganidan boshlaymiz. Bu davrda temuriy shahzodalar va beklar yurt olishga oshiqqan. Sulton Husayn Boyqaro tasarrufidagi Hisorda Sulton Mahmud mirzoning beki Xisravshoh bosh ko'tarib, Boyqaro bilan urushib, ikki marta uning ustidan g'olib keladi. Bobur bu holatga shunday baho beradi: «Xisravshohning muncha ulg'aymog'ig'a va muncha haddi yetmas ishlarni qilmog'ig'a Sulton Husayn mirzoning ikki qatla kelib ola olmay yonmog'i sabab bo'ldi».

Bobur Husayn Boyqaro va uning o'g'li Badiuzzamonning Xisravshoh, ukasi Vali hamda tarafdorlariga qarshi muhorabasini chuqur tahlil etadi. Husayn Boyqaro va lashkarlarining muhoraba sirlaridan ogoh emasliklari, avvalo, g'anim haqida kam ma'lumotga egaligi, dushmani bosish, yanchish o'rniga ikkilamchi ishlarga berilishganini yozadi. U Husayn Boyqaroning ikki oylik harakati makkor Xisravshohning oddiy hiylasi — Husayn askarlari joylashgan qo'rg'on, uylarga qal'a teshigidan tutun kiritib, ularning ustidan osongina g'olib kelganini afsus bilan yozadi: «Alar to'shukni berkitgan bila tutun yuqqori qo'rg'on eliga o'q yonib, qo'rg'on eli o'lum ichi bo'lib, qochib chiqtilar».

Umuman, Boburning harbiy mahoratini tahlil etish uchun Shayboniyxon tomonidan Hirotning bosib olingani Bobur tomonidan qanday tahlil qilinganini ko'rib chiqaylik. Taniqli rus sharqshunosi N. Veselovskiyning hayratli iborasi bilan aytganda, «Bobur botirligining cheki bo'lmagan: uning butun hayoti jasorat namunalarini bilan to'lib-toshib yotibdi».

Ingliz tarixchisi Eduard Holden, avvalo, Boburni mashhur Yuliy Sezar bilan qiyoslashni lozim topadi: «Bobur fe'l-atvoriga ko'ra, Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan». Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy va sarkardalik salohiyatiga oid ayrim ma'lumotlar qayd etildi, xolos. Bobokalonning harbiy sohadagi benazir salohiyati kelgusida ko'plab tadqiqotlar, ilmiy va badiiy asarlar uchun mavzu bo'lishi shubhasiz. Jumladan, Bobur haqida Mirzo Muhammad Haydar. «Tarixi Rashidiy» asarida: "...U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtoqli xislatlarga ega bo'lgan bir podshoh edi. Ushbu barcha fazilatlaridan shijoat va muruvvati ustun turardi. Turkiy she'rni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas"-deb qayd etilgai bejiz emas. .

Yoki Javoharlar Neruning "Hindistonning kashf etilishi" kitobida: "Bobur dilbar shaxs edi. Uyg'onish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi bo'lib, san'atni, adabiyotni, go'zallikni sevardi"-deb yozilgan bo'lsa, ingliz tarixchisi Eduard Xolden: "Bobur fe'li-sajiyasiga ko'ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan" deb esga olgan.

"Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi"-deb e'tirof etgan «Boburnoma» asarining tarjimoni Uilyam Erskin.

O'zbekiston-muqaddas Vatan, ota-bobolarimiz yotgan yer, o'zimiz yotadigan yer. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning har qarichiga mehru muhabbat uyg'otish bugungi kunning eng ustivor fazilatlaridan biriga aylanayotgani hammamizni quvontiradi.

Ayniqsa, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Vatan oldidagi burchini ado etish chog'ida yurtimiz ozodligi, xalqimizning bugungi tinch va osoyishta hayotini ta'minlash yo'lida halok bo'lgan mard va jasur o'g'lonlarimizning aziz xotirasiga ehtiromlar ko'rsatish biz uchun ham farz, ham qarzdir".

Zero, "Milliy armiyamiz –yoshlarning mardlik, matonat va jasorat maktabidir» shiori ostida tashkil etilgan "Tinchlik uchun kurashmoq kerak", O'zbek yigiti mustaqillik posboni "Men ham askar bo'laman", "Biz Vatanga tayanchimiz", "Men ham serjant bo'laman" "Bizning eng katta tayanchimiz va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz yoshlar" shiorlari ostidagi yoshlarni vatanparvarligi, shijoati va harakatlari bilan yurtimizda turli soha va tarmoqlarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan yigitlarni taqdirlash maqsadida «Mard o'g'lon» davlat mukofotini ta'sis

etilgan, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, o'qish, mehnat va jamoat ishlarida har tomonlama faol ishtirok etayotgan yoshlarni taqdirlash maqsadida «Kelajak bunyodkori» medalini ta'asis etilgani diqqatga sazovordir.

Bu o'rinda Prezidentimizning: “Bugungi kunimiz va kelajagimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlarni katta maqsadlar sari safarbar etish, o'z salohiyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish hamda ularni haqiqiy vatanparvar, har jihatdan komil insonlar qilib tarbiyalash ishlarida sustkashlikka yo'l qo'yish — bu ularga nisbatan xiyonatdir”, — degan chuqur mulohazali fikrlarini dasturilamal qilmoq, ayni muddao. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev mazkur muammolarni hal etishda dunyo yoshlarining ma'rifatga chaqirdi. Bu BMTning 72-sessiyasida so'zlangan ma'ruzada o'z ifodasini topdi: Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir.

Ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda.

Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq.

Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir.

Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi.

Shuningdek, muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar qatorida “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi. O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tuzilib, barcha davlat organlari va mahallalarda yoshlar masalalari bo'yicha rahbar o'rinbosari lavozimlari tashkil etildi.

Darhaqiqat, taraqqiyotimizning mustahkam poydevori ma'lum ma'noda nufuzli o'tmishimizdan olinadi va buning vositasida biz qudrat kasb etamiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Muqaddima”sida bundan keyin “o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanish” va “insoparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish” uqtirilgan. Binobarin, mukammal davlat va jamiyat, ya'ni huquqiy davlat va fozil jamiyat barpo etishning asoslari o'tmish manbalarida ham yetarlicha bayon qilingan.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi fondida "Sharq" mahalliy kompaniyasi tomonidan nashr etilgan "Zahiriddin Muhammad Bobur entsiklopediyasi" kitobi ham tuhfadir. "Kitob monumental nashr bo'lib, nafaqat boburshunoslikka, balki Temuriylar va Markaziy Osiyo tarixiga oid tadqiqotlarga ham katta hissa qo'shadi. Bu butun dunyo sharqshunoslari uchun qo'llanma bo'lishi kerak", — deb baholadi Yaponiya universiteti professori Rukoku, Boburshunos olim Eiji Mano.

4.Xulosa:

Zero, asrlar davomida ushbu zaminni dushmanlar hujumidan asrab kelgan shoh, sulton, lashkarboshi, sarkardalarimiz tarixdan barchaga ma'lumdir. To'la asos bilan aytish mumkinki, bugungi kunda temurbeklar maktabida ta'lim olayotgan hamda barcha yoshlarimiz vatanga sodiq, mard va jasur, komil insonlar bo'lib yetishishadi. Bunga yetarlicha asos va manbalarimiz bor. Bunga To'maris, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur kabi dovyurak, jasur va vatanparvar sarkardalarning bugun milliy armiyamiz saflarida xizmat qilayotgan vorislari sharaflari vazifani yurakdan his etib, o'z burchlarini sidqidildan uddalashayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi 20.09.2017 (President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev's speech at the 72nd session of the UN General Assembly 20.09.2017)
2. Ansoriddin Ibrohimov. Boburiylar merosiya – Toshkent: Mehnat, 1993. Ansoriddin Ibrokhimov. Heritage of the Boburis and Tashkent: Labor. 1993.
3. Boburnoma. – Toshkent, 2008
4. Sayfiddin Jalilov. Bobur haqida o'yalar. – Toshkent: Sharq, 2006 (Sayfiddin Jalilov. Thoughts about Babur. – Tashkent: Shark, 2006)
5. Xaydar Muxammad. Boburning yigitligi 1-jild. – Toshkent: Meriyus, 2013 (Haidar Muhammad. Babur's youth, Vol. 1. – Tashkent: Merius, 2013)
6. Mirzo Muhammad Haydar. Ta'rixi Rashidiy. Vedenie. Per. s.pers. A.Urinbaeva, R.P.Djalilovoy, L.M.Epifanovoy. –Tashkent, 1996. (Mirza Muhammad Haidar. The history of Rashidi. Vedenie. Per. s. pers. A. Urinbaeva, R.P. Djalilovoy, L.M. Epifanovoy. – Tashkent, 1996).
7. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. B.Ahmedovning kirish so'zi, izohlari va tahriri ostida. – Toshkent: Cho'lpon, 1994. (Mirzo Ulug'bek. History of four nations. Under the introduction, comments and editing of B. Ahmedov. - Tashkent: Cholpon, 1994.)

ЎТМИШГА НАЗАР

6 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 6, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST

VOLUME 6, ISSUE 8

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000